

**MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASH: HAQ-HUQUQLARNI  
HIMOYA QILISH VA KELAJAKNI QURISH***Gulnoza Muxiddinova**gulnozamuxiddinova9@gmail.com**Toshkent davlat yuridik universiteti**Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada majburiy mehnatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlari keng yoritilgan. Majburiy mehnat — shaxsni o'z xohishiga qarshi ishlashga majburlash va uning huquqlarini buzish holati sifatida ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, bolalar mehnati mavzusi alohida ta'kidlanadi, chunki bolalar ko'pincha o'z huquqlarini bilmasdan mehnatga jalb qilinadi va bu ularning jismoniy, ruhiy va ta'lim olish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga qarshi kurashish uchun amalga oshirilgan yirik ijtimoiy va qonuniy chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Majburiy mehnat, bolalar mehnati, ijtimoiy zo'ravonlik, inson huquqlari, mehnat kodeksi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, ijtimoiy himoya, siyosiy ta'sir, mehnat sharoitlari, xalqaro hamkorlik, majburiy mehnatdan himoya

Bugungi kunda fuqarolar o'rtasida yuzaga kelayotgan eng katta muammolardan biri, bu-majburiy mehnatdir. Majburiy mehnat — bu shaxsni o'z xohishiga qarshi mehnat qilishga majburlash, ularning huquqlarini buzish va ularni iqtisodiy yoki ijtimoiy zo'ravonlik orqali ekspluatatsiya qilish holatidir. Bu ijtimoiy zo'ravonlikning eng og'ir shakllaridan biri bo'lib, dunyoning ko'plab davlatlarida, shu jumladan O'zbekistonda, qonun bilan taqiqlangan bo'lsa-da, ba'zi sohalarda davom etmoqda. Hech kim shaxsni “ishdan bo'shatib yuboraman, oyligingni kamaytiraman, lavozimingni tushiraman va hokazo” tahdidlar bilan majburiy mehnatga jalb qilishga haqli emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiq, “Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.” 1930-yil qabul qilingan Majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq., zo'raki yoki majburiy mehnatga jalb qilingan har bir shaxsning normal ish kuni davomiyligi erkin yollangan mehnatkash mehnat sharoitlari uchun amalda qo'llaniladigan ish kunining davomiyligidek bo'lishi kerak va odatdagi normadan tashqari ishlangan vaqtga xuddi erkin yollangan mehnatkashga odatdagi ish vaqtidan tashqari ishga haq to'lanadigan miqdoridek haq to'lanadi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq harbiy xususiyatga ega bo'lgan ishlarni yoki “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida

muqobil xizmatni o‘tash bilan bog‘liq ishlarni bajarishni; bajarilishiga favqulodda yoki harbiy holat joriy etilishi sabab bo‘ladigan ishni; sud qarorlarini ijro etish chog‘ida qonunchilikka rioya etilishi uchun mas‘ul bo‘lgan davlat organlari nazorati ostida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘yicha jazo sifatida bajariladigan ish majburiy mehnat hisoblanmaydi. Yuqorida takidlanilgan holatlardan boshqa har qanday noqonuniy mehnat majburiy mehnat hisoblanadi.

Majburiy mehnatning turli shakllari mavjud, va ularning har biri turli darajada jiddiy oqibatlariga olib keladi. Ularning eng keng tarqalgan turlaridan biri bolalar mehnati. Bolalar ko‘pincha o‘z huquqlarini bilmasliklari yoki ularga to‘g‘ri ta‘lim berilmasligi sababli, mehnatga jalb qilinadi. Bu holatda, ular jismoniy va ruhiy zarar ko‘rishadi, ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lishadi, va umuman o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatidan cheklanadi. Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi”. Majburiy mehnatning mohiyati insonni o‘z xohishiga qarshi ishga jalb qilishda, ularni jarima, ta‘qib yoki yomon sharoitlarga qo‘yishda, yoki ularga o‘z huquqlarini amalga oshirishga imkon bermaslikda ifodalanadi. Bu holat nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ham tahdid qiluvchi muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston hukumati bolalar mehnatini kamaytirish va ularni majburiy mehnatdan himoya qilish uchun bir qator qonuniy va ijtimoiy chora-tadbirlar amalga oshirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va Mehnat kodeksida bolalar mehnatining taqiqlanishi haqida qat‘iy me‘yorlar mavjud. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) bilan hamkorlikda, O‘zbekiston bolalar mehnatini bartaraf etish uchun yirik dasturlar va tashabbuslar ishlab chiqdi. Shuningdek, bolalar mehnatiga qarshi kurashish, ularning ta‘lim olish huquqini himoya qilish hamda ularga yaxshi va xavfsiz ish sharoitlari yaratish uchun bir qator maxsus qarorlar va farmonlar qabul qilindi. Bu kabi me‘yorlarni Mehnat kodeksining 5-moddasida ham kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan 29-105-sonli konventsiyalari xam majburiy mehnatga qaratilgan bo‘lib, milliy qonunchiligimizda o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori davlat organlari ishidagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga jalb qilish holatlariga to‘liq barham berishga qaratilgan. Shuningdek, Prezidentimizning 2018-yil 14-avgustidagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risi”gi qarori va 2018 yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta‘limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, xalq ta‘limi vazirligi



tomonidan tizimdagi ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ishchi-xodimlari faoliyatiga tegishli bo'lmagan ishlarga, ya'ni obodonlashtirish, dala ishlari, paxta yig'im-terimi, majlislarda qatnashish, obuna, uyma-uy yurish va boshqa tadbirlarga jalb etilmaslik vazifalari yuklatilgan. O'zbekistonda majburiy mehnatga qarshi kurashning samarali bo'lishi uchun davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, va xalqaro tashkilotlar birgalikda ishlashlari kerak. Shuningdek, majburiy mehnatga qarshi kurashda o'quvchilar, yoshlar va umumiy aholini ushbu muammoning salbiy oqibatlari haqida xabardor qilish juda muhimdir. Majburiy mehnat insonning asosiy huquq va erkinliklariga to'g'ri kelmaydigan, uning qadr-qimmatini pasaytiradigan ijtimoiy zo'ravonlik shaklidir. Yangi O'zbekiston konsepsiyasi insonning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida tan oladi. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida ham ko'rishimiz mumkin: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi".

Shu bilan birga majburiy mehnat ayrim ijtimoiy guruhlar, ayniqsa, yoshlar, ayollar va ijtimoiy jihatdan himoyasiz qismdagi fuqarolarning ijtimoiy muammolarini yanada og'irlashtiradi. Ushbu guruhlar mehnatga majburiy jalb etilishi natijasida ta'lim olish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy o'sish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladilar. Shularning oldini olish maqsadida O'zbekistonda majburiy mehnatga qarshi kurashishga katta e'tibor berilgan.

Majburiy mehnatning ta'siri nafaqat mehnat qilayotgan insonlarga, balki butun jamiyatga ham ta'sir qiladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan, majburiy mehnat odamlarni o'z huquqlarini amalga oshirishdan, ta'lim olishdan va jismoniy hamda ruhiy rivojlanishdan mahrum qiladi. Bu holat, ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun katta xavf tug'diradi, chunki ular ko'pincha o'z huquqlarini himoya qilishda zaif bo'lishadi. Iqtisodiy jihatdan, majburiy mehnatning samarasi past bo'ladi. Mehnat qilish uchun majbur bo'lgan odamlarning ishga bo'lgan ishtiyoqi yo'qoladi, bu esa ishlab chiqarish unumdorligini pasaytiradi. Natijada, majburiy mehnatga asoslangan iqtisodiyot o'zining global raqobatdoshligini yo'qotadi va xorijiy investorlarni jalb qilishi qiyinlashadi. Siyosiy nuqtai nazardan, majburiy mehnatga qarshi kurash davlatning demokratik tamoyillarga sodiqligini ko'rsatadi. Bu holat davlatning xalqaro maydonda o'zining inson huquqlarini hurmat qilishi va demokratik islohotlarni amalga oshirishi borasidagi imidjini yaxshilaydi.

Majburiy mehnat, faqat iqtisodiy muammo emas, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlikka tahdid soluvchi muammo hisoblanadi. O'zbekiston hukumati majburiy mehnatni tugatishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, lekin bu kurashda barcha ijtimoiy qatlamlar, jumladan, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi zarur. Majburiy mehnatni to'liq bartaraf etish

uchun, ta'lim tizimini kuchaytirish, ijtimoiy himoyani yaxshilash va mehnat qonunchiligini yanada takomillashtirish muhimdir. Shuningdek, majburiy mehnatning salbiy oqibatlarini yengillashtirish uchun jamiyatni ma'rifiylashtirish va odamlarning huquqiy savodxonligini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, majburiy mehnat — bu jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammo bo'lib, nafaqat shaxsiy huquqlarning buzilishi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham tahdid soladi. O'zbekiston hukumati bolalar mehnatini kamaytirish va majburiy mehnatni bartaraf etish uchun qator ijtimoiy va qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, bu muammoni hal qilish uchun barcha ijtimoiy qatlamlarning, shu jumladan davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamjamiyatning hamkorligi zarur. Majburiy mehnatning salbiy ta'siri, ayniqsa yoshlar, ayollar va ijtimoiy jihatdan himoyasiz guruhlar uchun katta xavf tug'diradi. Bu holat ularning ta'lim olish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy o'sish imkoniyatlarini cheklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiya
3. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
4. “O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori
5. “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risi”gi Prezident qarori
6. “Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident farmoni